NAMANGAN VILOYATI DAVLATOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 19-may | 170-6-219-Q/25 | Davlatobod tumani hokimligi

Davlatobod tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 5-bob, 39-bandi hamda Davlatobod tumani maktabgacha va maktab ta’lmimi bo‘limining 2025-yil 2-apreldagi 443-sonli murojaatiga ko‘ra, tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim masalalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 21^1-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A M A N

1. Davlatobod tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilagan hududlar (mikrohudud)lar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

biriktirilgan hududlar (mikrohudud) doirasida doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan va haqiqatda yashovchi oila farzandlari inobatga olinadi;

davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbariyati mazkur muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

3. Tumani hokimining o‘rinbosari (O.Xasanov), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Z.Ergashev) hamda aloqador tashkilot va idoralar bilan birgalikda:

tumandagi umumta’lim muassasalari raxbarlarini zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni

bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish; har bir maktabga biriktirilgan mikrohudud sxemasini tuzish va mazkur sxemada mikrohududning aniq chegarasi, uning tarkibiga kirgan ko‘cha, tor va berk ko‘chalardagi barcha uylar, xonadonlarni qamrab olish vazifasi yuklatilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalar rahbarlari o‘zlarirahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (A.Dolimov)ga mahallafuqarolar yig‘ini raislariga maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman xalq ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2024-yil 23-maydagi 141-6-219-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotsin.

7. Mazkur qaror mahalliy gazetalarda e’lon qilinsin va rasmiy veb saytlarga joylashtirilsin.

8. Tuman hokimligining Axborot xizmati (O.Narzullayev) mazkur qarorniommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilish va hokimlikning rasmiy veb-sayti (Davlatobod.uz)ga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

9. Mazur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Xasanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Tadjimirzayev**

Davlatobod tumani hokimining
2025-yil 19-maydagi
170-6-219-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyati Davlatobod tumani maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi tasarrufidagi umumtaʼlim maktablariga maktab yoshidagi oʻquvchilar qabul jarayonlarini tashkil etiladigan umumtaʼlim maktablariga biriktirilgan mikrohudud toʻgʻrisida MAʼLUMOT